



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING QARORI

Namangan sh. Istiqlol ko‘chasi 57.

2023 - yil «27» - dekabr

VI-41-119-6-0-K/23

Namangan viloyati hokimligi

## Namangan viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrda 01/30-2-10348-son xatiga muvofiq, viloyat hokimining 2023-yil 26-dekabrda 01/27-5506-son taqdimnomasini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni asos va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Namangan viloyati mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 3 564 696 000,0 ming so‘m, xarajatlari 5 548 656 321,0 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1 983 960 321,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun Namangan shahar va tumanlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha Namangan viloyatining viloyat mahalliy budjeti bilan shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Namangan viloyati G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

7. 2024-yil uchun Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetidan Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini Namangan shahar va tumanlar budjetlari daromadlari prognozining ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 23 247 777,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

Namangan shahar va tumanlar budjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan Namangan shahar va tumanlar budjetlari jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan mablag'dan tashqari) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Namangan viloyatining viloyat budjeti zaxira jamg'armasidan mablag'lar ajratilganda ushbu Kengash qaroriga o'zgartirish kiritilmaydi.

10. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7- ilovaga muvofiq belgilansin.

11. 2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari daromadlarini shakllantirishda, soliqlarning quyidagi turlari shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga

undiriladigan boshqa yig'imglar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imglardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan olingan daromadlar;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishincha o'tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasidan olingan shahar va tumanlar aholisi sonining viloyat jami aholisi sonidagi ulushiga qarab transfert tarzda shahar va tumanlar mahalliy budjetiga o'tkazib beriladi.

Namangan viloyatining viloyat budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini sotishdan tushgan tushumlar;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan viloyatning viloyat mahalliy budjetiga o'tkazilishi belgilangan tushumlar;

Namangan viloyatining viloyat budjeti, Namangan shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

benzinni, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar.

Xalq deputatlari Namangan shahar va tumanlar Kengashlari shahar hamda tumanlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonunchilikda daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa:

davlat budjetiga o'tkazilishi nazarda tutilgan daromadlar turlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga;

mahalliy budjetlarga o'tkazilishi nazarda tutilgan daromad turlari tegishincha Namangan viloyatining viloyat budjetiga o'tkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushum summalarini qaytarish ularni qaytarish vaqtida amalda bo'lgan ajratmalarning normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo'yicha esa O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalarini hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o'tkaziladi. Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2023–2024-yillardagi sof foydasining 100 foizini davlat budjetiga dividend sifatida o'tkazadilar.

12. 2024-yilda Namangan viloyatining viloyat, Namangan shahar va tumanlar budjeti xarajatlarini amalga oshirishda:

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko'ra amalga oshiriladigan qo'shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tegishli mahalliy budjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Namangan viloyat, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari tegishli budjetlarini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantiradi.

Choraklar yakuni bo'yicha ushbu Kengash qarorining 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili ohirigacha ushbu mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, Namangan viloyati hokimligi Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birga tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qiladi.

Namangan shahar va tumanlar hokimliklari ham Namangan viloyati hokimligiga huddi shunday tartibda murojaat etadi.

Namangan viloyatining viloyat budjetidan, Namangan shahar va tumanlar budjetlaridan quyidagilar tegishincha moliyalashtiriladi:

Soliq boshqarmasi hamda hududiy inspeksiyalarni saqlash xarajatlari;

viloyat hamda shahar tumanlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari bilan bog'liq xarajatlar.

Namangan viloyatining viloyat budjetidan quyidagilar moliyalashtiriladi:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, sog'liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta'mirlash va jihozlash, shuningdek sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta'mirlash hamda ta'mirlash-tiklashga doir xarajatlari;

kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

kasb hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

Namangan viloyatidagi issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat boshqarmasi hamda vakolat berilgan organlarning hududiy bo'limlari xulosalariga ko'ra, tegishincha xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari bilan ma'qullanganidan keyin Namangan viloyati hokimi tomonidan tasdiqlanadi.

Issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) yil davomida qayta ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra issiqlik bilan ta'minlovchi korxonalar aholiga pasaytirilgan tariflar qo'llanilishi natijasida ko'rgan zararlarining o'rnini qoplash uchun qo'shimcha mablag'larga bo'lgan talab Namangan viloyati viloyat budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan qoplanadi.

13. Namangan viloyati hokimining birinchi o'rinbosari (A.Abduhamidov), Namangan shahar va tumanlar hokimliklari, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar:

birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish vazifalari topshirilsin.

14. Namangan viloyat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) hududiy Soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida bajarish vazifalari yuklansin.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyatining Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumanini tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrdagi 718-son qaroriga muvofiq Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumani va "Namangan viloyatining Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumanini tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-maydagi 293-son qaroriga muvofiq Namangan shahri tarkibida Yangi Namangan tumani tashkil etilganligini inobatga olib, tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar shuningdek, viloyatlar bo'ysinuvidagi shaharlar tarkibidagi tumanlar Xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini cheklanib qolinishini oldini olish maqsadida, Namangan shahar budjetining 2024-yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag'lari hamda daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismidan 25 (yigirma besh) foiz Namangan shahri tarkibidagi Davlatobod tumaniga, 25 (yigirma besh) foiz Namangan shahri tarkibidagi Yangi Namangan tumaniga yo'naltirilsin.

16. Viloyat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi hamda tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydrlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi Namangan viloyat boshqarmasi (B.Mirzaaxmedov) viloyat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko'rsin.

18. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi (B.Matmusayev)ga:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini

shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklansin.

19. Monopoliyaga qarshi ko'rashish qo'mitasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi (F.Saloxitdinov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

20. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Aliyev), viloyat Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Sh.Raxmonov) hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko'rib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Namangan viloyat boshqarmasi (D.Shakirov) Maktabgacha va maktab ta'lim (O.Zokirov) hamda Sog'liqni saqlash boshqarmasi (A.Iminov)larining Ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

Budjet intizomiga qat'iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo'yicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashga axborot kiritib borsin;

har chorakda xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashida o'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha kamomad va noqonuniy o'zlashtirishga yo'l qo'ygan soha rahbarlarining hisobotini eshitib borsin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi viloyat hokimligi tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to'liq rioya etgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga va natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

23. Mazkur Kengash qarori "Namangan haqiqati" va "Namanganskaya pravda"

gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi va viloyat hokimining moliya-iqtisod va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abduhamidov zimmasiga yuklansin.

**Xalq deputatlari Namangan  
viloyati Kengashi raisi**



**Sh.Abdurazakov**

Xalq deputatlari Namangan viloyat  
Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**2024-yil uchun viloyatning viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi**

| <b>Daromad turlari</b> |  | <b>ming so‘m</b>     |
|------------------------|--|----------------------|
| <b>1</b>               | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq   | 143 994 000          |
| <b>2</b>               | Yuridik shaxslar yer solig‘i   | 168 397 124          |
| <b>3</b>               | Yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | 347 956 750          |
| <b>4</b>               | Davlat boji  | 180 009 000          |
| <b>5</b>               | Jarimalar  | 97 414 100           |
| <b>6</b>               | Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan Davlat budgetiga ajratmalar                       | 3 990 000            |
| <b>7</b>               | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i  | 874 444 903          |
| <b>8</b>               | Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar  | 7 600 000            |
| <b>9</b>               | Foyda solig‘i  | 339 512 000          |
| <b>DAROMADLAR JAMI</b> |  | <b>2 163 317 877</b> |

Xalq deputatlari Namangan viloyat  
Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
2-ilova

**2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat budjetiga ajratiladigan tartibga  
soluvchi budjetlararo transfertlar miqdori**

ming so'mda

| T/r | Hudud nomi                          | ming so'm            |
|-----|-------------------------------------|----------------------|
|     | <b>JAMI</b>                         | <b>1 983 960 321</b> |
| 1   | <i>shundan</i><br>Namangan viloyati | 1 983 960 321        |

Xalq deputatlari Namangan viloyat  
Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
3-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga  
ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori

ming so'm

| T/r      | Ko'rsatkichlar  | Summa                  |
|----------|---|------------------------|
|          | <b>Viloyatning viloyat budjetidan ajratiladigan mablag'lar jami</b>   | <b>4 147 278 198,0</b> |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 1 773 272 337,0        |
|          | shundan:  |                        |
|          | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  | 0,0                    |
|          | Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash   | 3 000 000,0            |
|          | Advokatlik xizmati xarajati   | 1 800 000,0            |
|          | Tashqi qarzlarni so'ndirish   | 54 541 192,0           |
|          | Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi  | 23 247 777,0           |
|          | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar                       | 492 164 100,0          |
|          | Namangan viloyati shahar va tumanlarning budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transferlar miqdorlari | 1 799 252 792,0        |
| <b>1</b> | <b>Namangan viloyati Maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmasi</b>   | <b>694 010 460,0</b>   |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 296 810 460,0          |
|          | shundan:  |                        |
|          | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|          | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar                       | 397 200 000,0          |
| <b>2</b> | <b>Namangan viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi</b>   | <b>157 146 612,0</b>   |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 157 146 612,0          |
|          | shundan:  |                        |
|          | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|          | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar                       |                        |
| <b>3</b> | <b>Namangan viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi</b>  | <b>939 668 176,0</b>   |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 869 543 176,0          |
|          | shundan:  |                        |
|          | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|          | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar                       | 70 125 000,0           |
| <b>4</b> | <b>Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi</b>  | <b>52 473 924,0</b>    |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 52 473 924,0           |
|          | shundan:  |                        |
|          | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|          | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar                       |                        |
| <b>5</b> | <b>Namangan viloyat Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi</b>   | <b>109 103 252,0</b>   |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 109 103 252,0          |
|          | shundan:  |                        |
|          | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|          | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar                       |                        |
| <b>6</b> | <b>Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi</b>  | <b>10 019 566,0</b>    |
|          | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar  | 10 019 566,0           |

|           |  |                     |
|-----------|--|---------------------|
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>7</b>  | <b>Namangan viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasi</b>   | <b>43 824 142,0</b> |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 43 824 142,0        |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>8</b>  | <b>Namangan viloyati Irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmalari</b>   | <b>71 048 727,0</b> |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 65 948 727,0        |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar | 5 100 000,0         |
| <b>9</b>  | <b>Namangan viloyati Transport boshqarmasi</b>   | <b>1 479 933,0</b>  |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 1 479 933,0         |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>10</b> | <b>Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarish<br/>boshqarmasi</b>   | <b>18 019 213,0</b> |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 18 019 213,0        |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>11</b> | <b>Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi viloyat<br/>boshqarmasi</b>  | <b>1 752 154,0</b>  |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 1 752 154,0         |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>12</b> | <b>Namangan viloyati Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</b>   | <b>1 584 242,0</b>  |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 1 584 242,0         |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>13</b> | <b>Namangan viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi</b>   | <b>6 903 518,0</b>  |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 6 903 518,0         |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>14</b> | <b>Namangan viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi</b>   | <b>10 513 337,0</b> |
|           | <i>shu jumladan:</i><br>joriy xarajatlar   | 10 513 337,0        |
|           | shundan:<br>rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar<br>obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital<br>qo'yilmalar |                     |
| <b>15</b> | <b>Namangan viloyati Adliya boshqarmasi</b>  | <b>14 394 230,0</b> |
|           | <i>shu jumladan:</i>   |                     |

|           |   |                        |
|-----------|---|------------------------|
|           | joriy xarajatlar  | 14 394 230,0           |
|           | shundan:  |                        |
|           | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|           | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar   |                        |
| <b>16</b> | <b>Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, G'aznachilik xizmati boshqarmasi, Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi viloyat boshqarmasi</b> | <b>1 890 405 544,0</b> |
|           | <i>shu jumladan:</i>  |                        |
|           | joriy xarajatlar  | 31 811 560,0           |
|           | shundan:  |                        |
|           | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|           | Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash   | 3 000 000,0            |
|           | Advokatlik xizmati xarajati   | 1 800 000,0            |
|           | Tashqi qarzlarni so'ndirish   | 54 541 192,0           |
|           | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar   |                        |
|           | Namangan viloyati shahar va tumanlari mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar   | 1 799 252 792,0        |
| <b>17</b> | <b>Namangan viloyati soliq boshqarmasi</b>  | <b>26 341 430,0</b>    |
|           | <i>shu jumladan:</i>  |                        |
|           | joriy xarajatlar  | 26 341 430,0           |
|           | shundan:  |                        |
|           | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|           | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar   |                        |
| <b>18</b> | <b>(Iqtisodiyot xarajatlari hamda Prezident Administratsiyasi huzuridagi Namangan viloyatidagi muassasalar)</b>   | <b>80 812 369,0</b>    |
|           | <i>shu jumladan:</i>  |                        |
|           | joriy xarajatlar  | 37 825 492,0           |
|           | shundan:  |                        |
|           | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|           | Viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi  | 23 247 777,0           |
|           | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar   | 19 739 100,0           |
| <b>19</b> | <b>Namangan viloyati saylov komissiyasi</b>   | <b>74 896,0</b>        |
|           | <i>shu jumladan:</i>  |                        |
|           | joriy xarajatlar  | 74 896,0               |
|           | shundan:  |                        |
|           | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|           | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar   |                        |
| <b>20</b> | <b>Boshqa tashkilotlar</b>  | <b>17 702 473,0</b>    |
|           | <i>shu jumladan:</i>  |                        |
|           | joriy xarajatlar  | 17 702 473,0           |
|           | shundan:  |                        |
|           | rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar  |                        |
|           | obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar   |                        |

Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
4-ilova

**2024-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida ajratmalar  
normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar**

(Foiz hisobida)

| №  | Hududlar nomi        | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq |                   | Jismoniy shaxslar yer solig'i |                   | Yuridik shaxslar yer solig'i |                   | Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i |                   | Korxonalar aylanmasidan soliq |                   | Davlat boji                  |                   | Jarimalar                    |                   |
|----|----------------------|--|-------------------|-------------------------------|-------------------|------------------------------|-------------------|--|-------------------|-------------------------------|-------------------|------------------------------|-------------------|------------------------------|-------------------|
|    |                      | Shahar va tumanlar budjetiga                       | Viloyat budjetiga | Shahar va tumanlar budjetiga  | Viloyat budjetiga | Shahar va tumanlar budjetiga | Viloyat budjetiga | Shahar va tumanlar budjetiga   | Viloyat budjetiga | Shahar va tumanlar budjetiga  | Viloyat budjetiga | Shahar va tumanlar budjetiga | Viloyat budjetiga | Shahar va tumanlar budjetiga | Viloyat budjetiga |
| 1  | Namangan shahar      | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 20%  | 80%               | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 2  | Mingbuloq tumani     | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 3  | Kosonsoy tumani      | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 4  | Namangan tumani      | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 5  | Pop tumani           | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 50%  | 50%               | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 6  | To'raqo'rg'on tumani | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 50%  | 50%               | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 7  | Uychi tumani         | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 40%  | 60%               | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 8  | Chortoq tumani       | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 9  | Yangiqo'rg'on tumani | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 10 | Norin tumani         | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 11 | Uchqo'rg'on tumani   | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%  | 70%               | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |
| 12 | Chust tumani         | 0%   | 100%              | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 20%  | 80%               | 100%                          | 0%                | 0%                           | 100%              | 30%                          | 70%               |

(4-ilova davomi)

| Yigʻimlar                    |                   | Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari |                   | Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari |                   | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi |                   | Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar |                   | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligʻi |                   |
|------------------------------|-------------------|---|-------------------|--|-------------------|---|-------------------|---|-------------------|--|-------------------|
| Shahar va tumanlar budgetiga | Viloyat budgetiga | Shahar va tumanlar budgetiga                  | Viloyat budgetiga | Shahar va tumanlar budgetiga           | Viloyat budgetiga | Shahar va tumanlar budgetiga                    | Viloyat budgetiga | Shahar va tumanlar budgetiga                  | Viloyat budgetiga | Shahar va tumanlar budgetiga                 | Viloyat budgetiga |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 40%   | 60%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 45%   | 55%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 50%   | 50%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 40%   | 60%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 20%   | 80%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 30%   | 70%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 40%   | 60%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 40%   | 60%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 45%   | 55%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 40%   | 60%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |
| 100%                         | 0%                | 0%  | 100%              | 100%                                   | 0%                | 40%   | 60%               | 0%  | 100%              | 0%   | 100%              |

---

|      |    |    |      |      |    |     |     |    |      |    |      |
|------|----|----|------|------|----|-----|-----|----|------|----|------|
| 100% | 0% | 0% | 100% | 100% | 0% | 40% | 60% | 0% | 100% | 0% | 100% |
|------|----|----|------|------|----|-----|-----|----|------|----|------|

Xalq deputatlari Namangan viloyat  
Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
5-ilova

2024-yil uchun Namangan viloyati shahar va tumanlar mahalliy  
budgetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

|      |                      | ming so'm     |               |
|------|----------------------|---------------|---------------|
| T/r  | Hududlar nomi        | Daromadlar*   | Xarajatlar    |
| Jami |                      | 1 401 378 123 | 3 200 630 915 |
| 1    | Namangan shahar      | 493 333 022   | 628 191 450   |
| 2    | Mingbuloq tumani     | 47 909 531    | 178 130 684   |
| 3    | Kosonsoy tumani      | 72 248 883    | 226 686 542   |
| 4    | Namangan tumani      | 57 777 122    | 199 537 837   |
| 5    | Pop tumani           | 120 633 108   | 276 130 397   |
| 6    | To'raqo'rg'on tumani | 128 544 548   | 243 979 293   |
| 7    | Uychi tumani         | 86 136 197    | 243 030 401   |
| 8    | Chortoq tumani       | 67 230 122    | 221 687 143   |
| 9    | Yangiqo'rg'on tumani | 81 597 346    | 235 412 342   |
| 10   | Norin tumani         | 58 536 941    | 206 395 369   |
| 11   | Uchqo'rg'on tumani   | 77 693 715    | 252 426 603   |
| 12   | Chust tumani         | 109 737 588   | 289 022 854   |

\* tamaki, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlarni inobatga olmagan holda

Xalq deputatlari Namangan viloyat  
Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
6-ilova

**2024-yil uchun Namangan viloyati shahar va tumanlarning budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari**

ming so'm

| T/r | Hududlar nomi        | Summa                | <i>shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar*</i> |
|-----|----------------------|----------------------|--|
|     | <b>Jami</b>          | <b>1 799 252 792</b> | <b>518 792 480</b>   |
| 1   | Namangan shahar      | 134 858 428          | 117 676 106  |
| 2   | Mingbuloq tumani     | 130 221 153          | 23 178 887   |
| 3   | Kosonsoy tumani      | 154 437 659          | 38 545 821   |
| 4   | Namangan tumani      | 141 760 715          | 32 584 066   |
| 5   | Pop tumani           | 155 497 289          | 39 967 733   |
| 6   | To'raqo'rg'on tumani | 115 434 745          | 41 492 435   |
| 7   | Uychi tumani         | 156 894 204          | 39 299 606   |
| 8   | Chortoq tumani       | 154 457 021          | 36 335 860   |
| 9   | Yangiqo'rg'on tumani | 153 814 996          | 40 173 310   |
| 10  | Norin tumani         | 147 858 428          | 29 791 636   |
| 11  | Uchqo'rg'on tumani   | 174 732 888          | 31 401 995   |
| 12  | Chust tumani         | 179 285 266          | 48 345 025   |

\* tamaki, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar.

Xalq deputatlari Namangan viloyat  
Kengashining  
2023-yil 27-dekabrda  
VI-41-119-6-0-K/23-son qaroriga  
7-ilova

**2024-yil uchun viloyatning viloyat, shahar va tumanlar budjetlari shaxsiy  
g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng  
kam miqdori**

ming so'm

| T/r | Hududlar nomi        | summa               |
|-----|----------------------|---------------------|
|     | <b>Jami</b>          | <b>21 500 000,0</b> |
| 1   | Namangan viloyat     | 8 805 679,0         |
| 2   | Namangan shahar      | 2 575 594,0         |
| 3   | Mingbuloq tumani     | 650 649,0           |
| 4   | Kosonsoy tumani      | 885 671,0           |
| 5   | Namangan tumani      | 763 885,0           |
| 6   | Pop tumani           | 1 114 691,0         |
| 7   | To'raqo'rg'on tumani | 979 356,0           |
| 8   | Uychi tumani         | 959 801,0           |
| 9   | Chortoq tumani       | 886 723,0           |
| 10  | Yangiqo'rg'on tumani | 956 950,0           |
| 11  | Norin tumani         | 768 168,0           |
| 12  | Uchqo'rg'on tumani   | 1 022 063,0         |
| 13  | Chust tumani         | 1 130 770,0         |